

## BOSHLANG'ICH SINFLARNING ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARGA IMLO QOIDALARINI O'RGATISH METODIKASI

*Samarqand viloyati Pastdarg'om tumani*

*44-umumiy o'rta ta'lif maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

**Xoliqova Latofat**

Annotatsiya.

Mazkur maqolada Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish yuqori sinflar uchun o'qitishning dastlabki bosqichi bo'lib, mazkur fanning o'ziga xos xususiyatlari, Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish grammatika, imlo va unga bog'liq holda nutq o'stirish metodikasigina emas, balki xat- savod o'rgatish, sinfda va sinfdan tashqari o'qish kabi o'quv jarayoni haqida so'z boradi.

Kalit so'z. Axloqiy estetik dunyoqarash, leksikologiya, morfologiya, fonetika.

Shulardan kelib chiqib, o'qish va yozuvda bilim va ko'nikmalarining shakllanishi jarayonini hamda bu jarayonda o'quvchilar duch keladigan qiyinchiliklarni bartaraf etish, xatolarining sababini tahlil qilish, ularning oldini olish va to'g'rilashga yordam beradigan usullarni ishlab chiqish lozimdir. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish didaktika bilan, ya'ni ta'limning umumiy nazariyasi bilan ham bog'lanadi. Metodika didaktika bergilab bergen qonuniyatlar, qoida va tamoyillarga asoslanadi. Didaktika tamoyillariga, ya'ni o'rganiladigan materialning ilmiyligi va muvofiqligi, til va materiallarni o'rgatish va mustahkamlashda ko'rgazmalilik, onglilik, bilim, ko'nikma va malakaning puxtaligi, o'tilganlarni takrorlash, o'quvchilarning bilish faoliyatining darjasи, mustaqillik, o'qitishni hayot bilan bolalarning qiziqishlari bilan bog'lab olib borishga rioya qilish mifikda ona tilidan o'qish jarayonini tashkil qilishda juda muhimdir [3]. Ona tili o'qitish jarayonida bolalarning dunyoqarashi shakllanadi, ijodiy fikrlash qobiliyatları

rivojlanadi, nutqdagi nuqsonlar bartaraf etiladi, yozma nutq rivojlantiriladi, axloqiy, estetik dunyoqarashi yuksaladi, xarakterida ma'lum ijobiy xususiyatlar yuzaga keladi, mehnat qilishga o'rganadi va hokazo. Ona tili metodikasini umumiyligiga pedagogika bilan bog'lash, ayniqsa, boshlang'ich sinflarda muhimdir. Kichik yoshdagi o'quvchilarning jamoaviy va shaxsiy o'quv faoliyatida zarur bo'lgan ko'p odatlar va ko'nikmalar hali tarbiyalanmagan bo'ladi. Tashkilotchilik, jamoa ishiga tez kirishishi, e'tibor va eshitish, o'qish va yozish, faol va mustaqil ishlash, barcha ishlarni puxta va saranjom bajarish kabi ko'nikma va odatlar o'qituvchi va mакtab tomonidan amalgalash oshiriladigan umumpedagogik tadbirlar tizimini tashkil etadi. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning imlo bo'yicha savodxonligini shakllantirish uchun grammatik nazariyaga tayaniladi. Buning ahamiyatli tomoni shundaki, imloda maxsus bir so'zni emas, balki umumiyligida jihat mavjud bo'lgan so'zlar guruhining yozilishi tartibga solinadi. Qoidani yaxshi o'zlashtirgan o'quvchi lug'atdagi har bir so'zni yodida saqlab, xotiraga olish qiyinchiliklaridan xalos bo'ladi. Belgilangan qoidaga amal qilib, xususiyati bir xil so'zlarni osonlikcha to'g'ri yoza oladi. Grammatik, fonetik va so'z yasalishiga doir nazariy tushunchalarni ma'lum darajada o'rganmay turib, imlo qoidalarini o'zlashtirish qiyin, chunki grammatik nazariya imlo qoidalari mohiyatini ochadigan kalitdir. Fonetika va grafikaning fonetik tamoyillari asosida yoziladigan imlo qoidalarini o'zlashtirishda ham ahamiyati katta. Husnixat metodikasi grafika nazariyasiga tayanadi. Leksikologiyani bilish mакtabda lug'at ishi (ma'nodosh va zid ma'noli so'zlarga oid xilma -xil mashqlar o'tkazish, ko'p ma'noli so'zlar, ularning ma'no bo'yoqlari ustida ishlash) ni to'g'ri tashkil etish juda muhimdir. Morfologiya va sintaksis mavhum til hodisalarini shakllantirishni, til qurilish haqida tushuncha hosil qilishni to'g'ri tashkil etishga, grammatik tushunchalardan to'g'ri yozuv masalalarini hal qilish uchun foydalanishga imkon beradi. Grammatikadan bilimi bo'lмаган о'quvchilarda imlo va punktuatsiyadan ko'nikma va malakalarni shakllantirish mumkin emas. Grammatika o'quvchilar nutqini o'stirishda muhim

o’rin tutadi, chunki grammatika so’z shakllarini to’g’ri tuzish, so’z birikmasi tarkibidagi so’zlarni o’zaro to’g’ri bog’lash va gapni to’g’ri tuzishga o’rgatadi [2].

To’g’ri yozuvga o’rgatish metodikasining rivojlanishida o’zbek tili imlo nazariyasiga asoslaniladi. Boshlang’ich sinflarda yozuv darslarining ilk bosqichlarini to’g’ri tashkil qilishda harf unsurlari, har bir harf yoki harflar bog’lanishini o’rgatishni og’zaki, yozuv taxtasida, qo’l mashqlari orqali, harflarni yozuv chizig’i bo’ylab joylashishi haqida nazariy va amaliy tushuncha berish orqali malakalari rivojlantiriladi. Yozuv darslarining ilk bosqichlarida o’quvchining yozuv malakalarini to’g’ri shakllantirishda tovushlarni to’g’ri talaffuz qilishi, so’zlarni to’g’ri bo’g’inga ajrata olishi muhim ahamiyat kasb etadi. Yozuv malakalarini shakllantirishda o’quvchilarda uchraydigan ayrim tipik xatolarning oldini olish va tuzatish ustida ham ish olib borish lozim. Yozuv tezligini oshirish bilan ayrim bir-biriga o’xhash harflarning shaklini buzib, qisqa talaffuz qilinadigan unli tovushlarni, so’z oxirida kelgan qo’sh undosh yoki jarangsiz undosh tovushlarni tushirib yozish holati uchraganda esa ularni qayta mashq qildirish, ta’limiy o’yinlar yordamida o’quvchi ongiga singdirib borish muhimdir. Yozuv darslarining ilk bosqichlarida imloviy xatoga yo’l qo’yayotgan o’quvchilarning so’zlarni to’g’ri talaffuz qilish va so’zni bo’g’inga to’g’ri ajrata olish malakalarini shakllantirishga doir so’z va bo’g’inni tovush tomonidan analiz va sintez qilish usullaridan kengroq foydalanish ijobiy natija beradi.

So’z va bo’g’indan tovushlarni ajratishda, ya’ni tahlil qilishda quyidagi usullarni qo’llash mumkin:

1. O’quvchilarni unli bilan tanishtirish uchun ikki bo’g’inli so’zning birinchi bo’g’ini unli tovush bilan ifodalangan so’zlar: o-ta, i-liq, a-nor, e-lak kabi.
2. Undoshlarni ajratishda so’z yoki bog’in oxirida keladigan undoshlarni ajratish: zarar, daraxt, kitob, obod, sud kabi.
3. Portlovchi undoshlarnining o’zini sof holda unli aralashtirmasdan aytish qiyin. “T” bilan “Y” ni, “R” bilan “Y” ni 1-sinf o’quvchilari almashtirib talaffuz etadilar.

Shuning uchun o'sha tovushlar ishtirok etgan so'zlarni taqqoslab, dil- til, oldi-olti, tarzida o'rgatish lozim. Yoki egalik qo'shimchasini qo'shish orqali aniq talaffuzga o'rgatish: savod-savodi, zavod-zavodi kabi.

So'zlardagi tovushlarni tartibi bilan aytish, sonini aniqlash va bo'g'inga ajratish:b-i-l-i-m - bi-lim –bilim . beshta tovush, ikkita bo'g'in, ikkita unli, uchta undosh kabi.

O'quvchilar ishtirokida unli yoki bir undosh almashganda ma'nosi o'zgaradigan so'zlarni topish, so'z o'yinini tashkil qilish: ona-ana, qor-bor, soy - loy kabi.

- So'z o'rtasida bir tovush ortirish bilan yangi so'z hosil qilish: kurak-kurmak, zirak-ziyarak, to'la-to'pla kabi.

- So'z tarkibida tovush yoki bo'g'inni tushirib qoldirish yangi ma'noli so'z yasash: anor-nor, gulzor-gul, tilak-tila.

- Qo'sh undoshlarni tushirib qoldirish asosida ma'nosi o'zgargan so'z hosil qilish: qattiq –qatiq, cho'qqi-cho'qi, kurra-kura kabi.

- So'z tarkibida ketma–ket kelgan undoshlardan birini qo'llamay yangi so'z hosil qilish: inson –inon, erkin-ekin, osmon- oson kabi [1].

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini to'g'ri yozishga o'rgatishning muhim vositalaridan biri imlo lug'ati bilan ishlashdir. Imlo lug'ati bilan ishlash jarayonida o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini shakllantirish uchun turli xil topshiriqlar beriladi. Talaffuzida va yozilishida farq qiladigan so'zlarni lug'atdan topish va shu so'zlar ishtirokida gaplar tuzish. Dars jarayonining mavzuni mustahkamlash bosqichida lug'at yordamida "x" va "h" tovushlarini mustahkamlashga doir ta'limiylar o'yinlar tashkil qilishdir.

Hozirgi kunda deyarli barcha maktablarda o'quv xonalari kerakli jihozlar bilan ta'minlangan. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari har bir bosqichda o'qituvchining eng yaqin ko'makchisidir. O'qituvchi darsga tayyorgarlik jarayonida didaktik, tarqatma, mavzuga oid slayd va internet orqali qo'shimcha ma'lumotlar , qiziqarli suratlar, audio va video lavhalar bilan boyitishi mumkin.

Masalan :

- Ona tili darslarida mavzuga oid matnni audio orqali eshittirish va mavzuga oid kerakli so'zlarni o'quvchilar tinglash orqali daftarlariga yozishi;
- Mavzuga oid slayd tayyorlashi, qiziqarli suratlar bilan boyitish, berilgan suratlarning nomlarini o'quvchilar daftarga yozishlari va yozilgan so'zlarni imlo lug'at orqali tekshirishlari mumkin.
- "Xatosini toping " didaktik o'yinini slayd yordamida o'tkazish, o'quvchilar yozishda yo'l qo'yayotgan xatolarini topish va shu so'zlar ishtirokida "So'z va gap" o'yinini tashkil qilish (xato yozilgan bir necha so'zlar beriladi va bu so'zlarni o'quvchilar topadilar, shu so'zlar ishtirokida gaplar tuzadilar).
- Video lavhalar orqali o'quvchilarni ijodiy fikrlashga chorlash, mustaqil matn tuza olish ko'nikmalarini shakllantirish mumkin.

Matn tuzish jarayonida o'qituvchi o'quvchilarni quyidagi xatolar xarakteriga ko'ra tahlil qilishlari mumkin; fonetik xatolar va morfologik xatolar. O'qituvchi o'quvchilarning yozma ishlarini tekshirish jarayonida yo'l qo'yilgan xatolarni aniqlab, jadval tuzishi va bu jadvalga asoslanib dars bosqichlarida aynan yo'l qo'yilgan xatolarni bartaraf etishga yo'naltirilgan didaktik o'yinlarni tashkil etish ham samarali natija beradi.

Masalan, quyidagicha jadval tuzish:

N	Qaysi qoidada xato qilgan	Kimlar xato qilgan	Xato qilganlar soni
1.	Talaffuzda tushib qoladigan undoshlar	M.S, K.D, V.D	3
2.	Qo'sh undoshlar	I.R, N.B	2

Shu tartibda o'qituvchi o'quvchining ismi va familiyasining bosh harflari bilan yoki o'ziga qulay usul bilan belgilash, yo'l qo'yilgan xatolar sonini aniqlab, bartaraf etish uchun lug'at, izohli, ta'kidiy diktantlar o'tkazishlari mumkin bo'ladi.

Xato to'g'rilashning eng muhim sharti o'quvchi o'zi yo'l qo'ygan xatoning to'g'ri variantini o'zlashtirib olishidir. Shunda u xatoning kelib chiqish sababini tushunadi.

Boshlang'ich ta'limda xatolar ustida ishlash va ularni bartaraf etish ta'limiy-tarbiyaviy xarakterdagi mashg'ulot bo'lib, o'quvchilarning nutqiy madaniyatini shakllantirishda asosiy bosqich hisoblanadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Qosimova K. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent, 1978.
2. Ernazarov G'. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. (4-nashr) – Toshkent, 2013.
3. Qosimova K., Matjonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent, 2009.